



**ELEKTRON ARXIV TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA TAHLILI**

Yusupova Faringiz O‘ktam qizi

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash

va malakasini oshirish instituti, dotsent v.b.

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Faringiz002@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada elektron arxiv tizimining shakllanish bosqichlari, rivojlanish yo‘nalishlari va ularning huquqiy hamda tashkiliy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda an‘anaviy arxiv faoliyatidan raqamli boshqaruv tizimiga o‘tish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, milliy qonunchilikdagi islohotlar hamda ilg‘or xorijiy tajriba o‘rganilgan.*

Muallif elektron arxiv tizimining zamonaviy modelini axborot xavfsizligi, shaffoflik, ma‘lumotlarning uzoq muddatli saqlanishi va tezkor foydalanishni ta‘minlovchi raqamli platforma sifatida talqin qiladi.

Kalit so‘zlar: *elektron arxiv, raqamli transformatsiya, hujjat aylanishi, axborot xavfsizligi, arxiv xizmatlari, xalqaro standartlar, O‘zbekiston Respublikasi tajribasi.*

Zamonaviy davrda axborot va hujjatlar oqimi keskin ortib borayotgan bir paytda, ularni ishonchli saqlash, tizimli tartibga solish va tezkor foydalanish imkoniyatlarini yaratish davlat boshqaruvi, ilmiy faoliyat va huquqiy tizimning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, elektron arxiv tizimi davlatning axborot siyosati va raqamli transformatsiyasining ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda.

XX asrning mashhur amerikalik arxivshunosi T.R.Schellenberg “arxiv hujjatlarini ikki guruhga ajratgan: records of current use (joriy hujjatlar) va records of permanent value (doimiy ahamiyatga ega hujjatlar). Uning fikricha, arxiv hujjatlari — bu idora faoliyatida yaratilgan, huquqiy yoki ma‘muriy ahamiyatini yo‘qotmagan va keyinchalik tarixiy-tadqiqot uchun qimmatga ega bo‘ladigan manbalardir” deb ta‘kidlagan¹⁹.

Ingliz olimi Hilary Jenkinson “arxiv hujjatlarini “idoralarining tabiiy mahsuli” sifatida talqin qilgan. Unga ko‘ra, hujjatlar yaratilganidan keyin ular ustida tanlab olish ishlari amalga oshirilmasligi, balki to‘liq majmua sifatida saqlanishi lozim” ekanligini ko‘rsatgan²⁰.

XXI asr arxivshunosligining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan kanadalik Luciana Duranti esa “elektron hujjatlarning huquqiy ishonchliligi va “archival bond” nazariyasini

¹⁹ Schellenberg, T. R. *Modern Archives: Principles and Techniques*. University of Chicago Press, 1956

²⁰ Jenkinson, Hilary. *A Manual of Archive Administration*. Oxford: Clarendon Press, 1922



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ilgari surgan. Unga ko‘ra, hujjat faqat matndan iborat emas, balki u yaratilgan kontekst, tizim va metama‘lumotlar bilan birga arxiv ob‘ekti sifatida qaraladi” deb urg‘u bergan²¹.

Bundan tashqari, UNESCO va Xalqaro Arxivlar Kengashi (ICA) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar xalqaro tashkilotlarning ta‘rifida arxiv hujjatlari — fuqarolar, jamiyat va davlat uchun tarixiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan, doimiy saqlanishi zarur bo‘lgan yozma, ovozli, tasviriy va elektron materiallardir arxiv hujjatlarining xalqaro miqyosda huquqiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini belgilab berishi bo‘yicha tahlil qilingan²².

An‘anaviy arxiv tizimi ko‘p hollarda qog‘oz hujjatlar, jismoniy saqlash joylari va inson omiliga asoslangan bo‘lib, zamonaviy axborot oqimini boshqarish uchun yetarli darajada samarali emas. Raqamlashtirish jarayonlari esa hujjat aylanishi va arxiv faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi — bu bosqichda arxiv nafaqat saqlovchi, balki axborotni boshqaruvchi tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, arxiv ishini raqamlashtirish va elektron arxiv tizimini shakllantirish jarayoni faqat texnologik yangilik emas, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, tarixiy merosni saqlash va huquqiy ishonchlilikni mustahkamlashning strategik yo‘nalishi sifatida qaraladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va UNESCO arxiv xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha global siyosatni shakllantiruvchi asosiy institutlardir. 1992-yilda UNESCO tomonidan qabul qilingan “Memory of the World (Dunyo xotiras i)” dasturi tarixiy, madaniy va ilmiy hujjatlarni raqamli formatda saqlashni rag‘batlantirdi. Ushbu dastur asosida elektron arxivlar uchun metadata (metama‘lumot) standarti, raqamli formatlarning mosligi va uzoq muddatli saqlash (digi tal preservation) bo‘yicha global tavsiyalar ishlab chiqildi²³.

BMTning “E-Government Survey” (2022) hisobotida elektron arxivlar davlat axborot tizimining yadro elementi sifatida ko‘rsatilgan. Bu hisobotga ko‘ra, elektron arxivlar “ochiq hukumat” tamoyillarini amalga oshirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishda muhim vosita sifatida e‘tirof etiladi²⁴

Yevropa Ittifoqi davlatlari arxiv xizmatlarini raqamlashtirishni “Digital Europe” va “e-Government Action Plan 2020” doirasida amalga oshirgan. Shu asosda 2015-yildan buyon “European Archival Infrastructure (E-ARK)” loyihasi faoliyat yuritadi. Bu loyiha ISO 14721 (OAIS – Open Archival Information System) xalqaro modeli asosida yaratilgan bo‘lib, barcha davlat arxivlarining yagona formatda raqamli saqlanishini ta‘minlaydi²⁵

Amerika Qo‘shma Shtatlari elektron arxiv tizimini eng ilg‘or davlatlardan biri sifatida shakllantirgan. National Archives and Records Administration (NARA) tomonidan

²¹ Duranti, Luciana. *Diplomatics: New Uses for an Old Science*. Scarecrow Press, 1998

²² UNESCO. *Records and Archives Management Programme (RAMP)*. Paris, 1981; ICA. *Universal Declaration on Archives*. Paris, 2010

²³ UNESCO. *Memory of the World: Guidelines for the Preservation of Digital Heritage*. Paris, 2020.

²⁴ International Organization for Standardization (ISO). *ISO 15489:2016; ISO 16175:2020 – Records Management and Information Governance*. Geneva, 2021.

²⁵ European Commission. *Digital Europe Programme 2022–2027*. Brussels, 2023.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yaratilgan “Electronic Records Archives (ERA 2.0)” platformasi 2008-yildan buyon ishlaydi va AQSh federal hukumatining barcha elektron hujjatlarini markazlashtirilgan tarzda saqlaydi²⁶.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda arxiv ishini modernizatsiya qilish, uni raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘nalishida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2010 yilda qabul qilingan “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi Qonun²⁷, 2020-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori²⁸ hamda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”²⁹ dasturlar elektron hujjatlar saqlanishi, qayta ishlanishi va ulardan foydalanishning huquqiy asoslarini mustahkamladi.

Shu bilan birga, amaliyotda elektron arxiv tizimini joriy etishda bir qator muammolar — normativ-huquqiy bazaning parchalanmaganligi, texnik infratuzilmaning notekisligi, metama‘lumotlar (metadata) standartlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi, axborot xavfsizligi bo‘yicha yagona talablarning yo‘qligi — dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Elektron arxiv tizimi an‘anaviy arxivchilikdan farqli ravishda integratsiyalashgan axborot platformasi, milliy raqamli merosni saqlash tizimi va axborot xavfsizligining huquqiy kafolati sifatida konseptual tahlil qilinishi lozim.

Elektron arxivlarni joriy etishda davlat organlari, adliya tizimi va ilmiy muassasalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni xalqaro standartlar (ISO 15489, 16175, MoW/UNESCO Memory of the World) bilan uyg‘unlashtirish zarur hisoblanadi.

Xalqaro tajribadan ko‘rinib turibdiki, elektron arxiv tizimi davlatning raqamli transformatsiya siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, u hujjat aylanishi samaradorligini oshirish, tarixiy hujjatlarni asrash, fuqarolarning axborotga kirish huquqini kengaytirish va boshqaruvda shaffoflikni ta‘minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi uchun elektron arxiv tizimini shakllantirish — bu texnologik yangilik emas, balki davlat boshqaruvi madaniyatining yangi bosqichi, ya‘ni “raqamli tarixiy xotira” konsepsiyasining amaliy ifodasidir.

Shunday ekan, elektron arxiv tizimini ISO va UNESCO standartlari asosida joriy etish, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida uni milliy axborot siyosati bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekiston Respublikasini mintaqada “raqamli merosni boshqaruvchi ilg‘or davlat” maqomiga olib chiqadi.

²⁶ U.S. National Archives and Records Administration (NARA). *Managing Government Records Directive (M-12-18)*. Washington D.C., 2012.

²⁷ ARXIV ISHI TO‘G‘RISIDA O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.06.2010 yildagi O‘RQ-252-son <https://lex.uz/ru/docs/-1645540>

²⁸ Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son <https://lex.uz/docs/-4800657>

²⁹ “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Foydalangan adabiyotlar

1. Arxiv ishi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.06.2010 yildagi O'RQ-252-son <https://lex.uz/ru/docs/-1645540>
2. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son <https://lex.uz/docs/-4800657>
3. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
4. Schellenberg, T. R. Modern Archives: Principles and Techniques. University of Chicago Press, 1956
5. Jenkinson, Hilary. A Manual of Archive Administration. Oxford: Clarendon Press, 1922
6. Duranti, Luciana. Diplomatics: New Uses for an Old Science. Scarecrow Press, 1998
7. UNESCO. Records and Archives Management Programme (RAMP). Paris, 1981; ICA. Universal Declaration on Archives. Paris, 2010
8. UNESCO. Memory of the World: Guidelines for the Preservation of Digital Heritage. Paris, 2020
9. International Organization for Standardization (ISO). ISO 15489:2016; ISO 16175:2020 – Records Management and Information Governance. Geneva, 2021.
10. European Commission. Digital Europe Programme 2022–2027. Brussels, 2023.
11. U.S. National Archives and Records Administration (NARA). Managing Government Records Directive (M-12-18). Washington D.C., 2012.